

## MAKTABGACHA TA'LIMDA NAFOSAT TARBIYASI

Umurova Ma'rifat Yoshiyevna

O'zbekiston Respublikasi Buxoro davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasи  
o'qituvchisi

**Annotasiya:** Maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishida nafosat tarbiyasining o'rini, nafosat tarbiysi mazmuni, bolalarni ma'naviy tomondan tarbiyalashda musiqaning roli hamda bastakorlar, rassomlarning yaratgan asarlari vositalari bolalarning go'zallikni sevish ruhida tarbiyalashi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Nafosat tarbiysi, turmush, tabiat, san'at go'zalligi, bolalarning badiiy faoliyati, xalq og'zaki ijodi, badiiy nutq madaniyati

O'sib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, dunyoqarashi, e'tiqodini o'stirish, xulq - atvorini tarkib toptirish maktabgacha ta'lim muassasasining dolzarb muammolaridan sanaladi.

Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik hislari, milliy g'urur, mustaqillik g'oyasi hamda o'z xududi, o'lkasi, xalqiga mehr va sadoqatli bolani yoshiga mos ravishda shakllantirish maktabgacha ta'limda ma'naviy ishlarning asosini tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning odob - axloqli bo'lishi va mexnatga muxabbat qo'yishiga katta e'tibor beriladi. Bolalar ilk yoshdan boshlab uyda, bog'chada, mexmonda o'zini tutish qoidalari, muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, yechinish, saranjom-sarishta yurish, odobli, mehnatsevar bo'lish, boshqalar mehnatini qadrlash kabi odatlarga o'rgatiladi. Ana shu odatlar boshi odob - axlokli, mexnatga layoqatli qilib tarbiyalash mazmunining asosini tashkil etadi.

Bolalarning ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishida nafosat tarbiysi asosiy o'rincutadi. Insoniyat go'zallikni butun rivojlanish tarixi jarayonida egallaydi va yaratadi. Go'zallik madaniy tarixiy tajribaning bir qismi hisoblanadi.

Uning obyektiv mavjudligi estetik tarbiya nazariyasini, estetik tajribani yosh avlodga maqsadga muvofiq va muntazam ravishda berish va shu orqali uni estetik rivojlantirishni ta'minlashning faol usullarini ishlab chiqishga yo'naltiradi. Bunda estetik tarbiya madaniyatni egallashning asosiy vositasi tarbiya va ta'limdir. Estetik tarbiya juda keng tushuncha bo'lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi. Estetik tarbiya (nafosat tarbiysi) - bu bolalarga voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Nozik didli bo'lish, go'zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish, o'z hayotini go'zallik qonunlari asosida qura olish - komil insonning

eng zarur fazilatidir. Estetik tarbiya - eng avvalo, har bir kishida badiiy hissiyot tuyg'ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, his-tuyg'ular va ko'nikmalarning o'sib borishi jarayonida insonning o'zi ham ma'naviy boyib, hayoti yanada sermazmun bo'ladi. Yashayotgan zamoniga nisbatan mehr-muhabbati ortib boradi. Bularning hammasi har bir insonda go'zallikni xunukdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatini shakllantiradi, uni yanada rivojlantiradi. Estetik tarbiya bugungi kunda shunisi bilan muhimki, did-farosatlilik mehnatda, ishlab chiqarishda, kundalik amaliy faoliyatda - har bir inson uchun hayotiy ehtiyojga aylanib qolgan.

Donolardan biri go'zallik axloq-odobning tug'ishgan singlisidir, degan edi. Darhaqiqat, odob va nafosat tarbiyasi o'zaro chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Chunki nafosat tarbiyasining natijasi axloq-odobda, chiroyli xatti-harakat, go'zal munosabatda va hayotga, keljakka, insonlarga, tabiatga muhabbatda ko'rindi. Xalqimiz «Kamtarlik ham husn» deydi. Mana shu birgina iborada chuqur ma'no bor. Estetik tarbiya orqali yoshlarda kamtarlik xislati tarkib topadi. Bu xislat kishilarning eng go'zal belgisidir. Salbiy xatti-harakatlardan nafratlana bilish tuyg'usini ham estetik tarbiyani paydo qiladi Tasviriy sa'nat asarlaridan zavqlana olish, musiqani tinglash va undan shodlana olish qibiliyatlari bolalarda ilk yoshdan rivojlantirib boriladi.

Nafosat tarbiyasi mazmunining asosini chiroyli rasmlarni his etish, ulardan zavqlana olish, asosiy ranglardan foydalana olish, ular yordamida sodda narsalarni qog'ozda tasvirlay olish, ko'rsatkichlarga erishish uchun davlat tomonidan zaruriy shart - sharoitlar va imkoniyatlar yaratiladi. Bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari xar o'kuv yili yakunida tayanch dasturda keltirilgan talablar asosida nazorat mashg'ulotlari orqali tekshirib boriladi. 6-7 yoshdagi bolalarning plastilin yoki loydan sodda shakldagi narsalarni yasay olish, musiqani tinglab zavqlana olish, ayrim milliy cholg'u asboblarini bilish, musiqa ohangiga mos ravishda raqsga tushish va qo'shiq ayta olish kabilarga o'rgatishni tashkil etadi.

Bolalarni ma'naviy tomondan tarbiyalashda musiqaning xam roli katta. Musiqa turmushimizga chuqur kirib kelgan, u har qadamda bizga hamroh.

Bog'chada o'tkaziladigan xar bir tasviriy faoliyat mashg'ulotlari estetik tarbiya vositalaridan biri bo'lib, bolalarni aqliy rivojlantirish, estetik va badiy didni tarbiyalash ijodiy qibiliyatini o'stirishga yordam beradi.

Rasmlash, loy va plastinkadan turli buyumlar yasash qirqib yopishtirish va qurib-yasash mashg'ulotlarini bog'cha yoshidagi bolalarning eng sevimli faoliyatlaridan biri. Tasviriy faoliyat dasturiga bezakli rasmlar bilan ishlash, loy va plastilin, qirqib yopishtirish bo'yicha milliy badiiy an'analar, naqsh kompozitsiyasini tuzish, o'zbek xalq amaliy san'ati asarlari bilan tanishtirish kiritilgan.

Tasviriy faoliyat mashgulotlarida sapol buyumlar, xalk o'yinchoklari, o'simliklar, gullar, bog'lar, mevalar, paxta kabi narsalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Dasturda ko'rsatilgan barcha metodik tavsiyalar bolalarni ma'naviy maxalliy yetuk kilib tarbiyalashga qaratilgan. Bu yerda bola tarbiyasiga javobgar faqat onalar emas, balki

ota-onalar xam tengday javobgarlikni aloqador. “Bolani yaxshi tarbiyalash tinch-totuv keksalik gashtini surishdir” degan xalk iborasiga amal kilib bolalarimizni odamgarchilik kabi eng, muxim umuminsoniy tuyg’uni tarbiyalashga e’tibor berishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda mustaqil Respublikamiz uchun yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash hayotiy muhim vazifalardan biri

hisoblanadi. Ayniqsa, ertangi kun egalari bo’lmish yosh avlod kamoloti, ularning har tomonlama barkamol inson bo’lib voyaga yetishlariga, zamon talablari darajasida bilim olishlariga katta e’tibor qaratish lozim. Chunki har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy farovonligi-fuqarolarning aqliy va axloqiy salohiyati hamda ularning ma’naviy darajada yuksak rivojlanishiga bog’liq.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. P.Yusupova “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.”- Toshkent - 1993 y.
2. “Uchinchi ming yillikning bolasi” tayanch dasturi.”Ma’rifat-Madadkor” 2002 y.
3. O’quvchilarda vatanparvarlik tuyg’sini shakllantirishda badiiy adabiyot va musiqaning roli  
U.M. Yoshiyevna - Central Asian Research Journal for ..., 2022
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda musiqaning o’rni Pedagogik maxorat jurnali Maxsus son –Buxoro, 2021. –B. 103-109.
5. THE ROLE OF THE CREATIVE HERITAGE OF EASTERN THINKERS IN THE FORMATION OF THE SPIRITUAL AND MORAL OUTLOOK AND MUSICAL PERCEPTION OF YOUNG PEOPLE  
Umurova Marifat Yoshiyevna 2021/4/23 102-104
6. Yoshiyevna U. M. THE METHOD OF ORGANIZING " GROUP SINGING" IN TEACHING " MUSICAL CULTURE" IN SECONDARY SCHOOLS //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 4. – S. 271-274.
7. Umurova M. Yo. THE IMPORTANCE OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN SPECIAL EDUCATIONAL SCHOOLS //Vestnik nauki i obrazovaniya. – 2020. – №. 22-2. – S. 24-26.
8. O’.X.Ramazonova. Talabalarda ma’naviy-ahloqiy tushunchalarni shakllantirish, guruh bilan ishlash va uni boshqarish tamoyillari. Scientific progress 1 (5), 2021.
9. Rajabov, T. I. (2021). O’quvchi-yoshlarga o’zbek milliy musiqa folklori namunalari vositasida estetik tarbiya berish. Science and Education, 2(11), 1094-1103.